

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
137- sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memolarning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Oliy ta'lim massasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi	89
Karlibaeva Gulshat	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	



O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	116
Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Xalqaro moliya-kredit instutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
Qosimov Bobur Sobirovich	
Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni	131
Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	



JAHONDA MOLIYAVIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIDA KORPORATIV TUZILMALAR FAOLIYATINING O'RNI

Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Toshkent arxitektura va qurilish universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: betonshakh@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon miqyosida moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni bayon etilgan. Dunyoda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishi, korporativ tuzilmalar soni hamda ularning bozor kapitalizatsiyasining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi dinamikasiga oid ma'lumotlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida korporativ tuzilmalarda moliyaviy munosabatlarni, xususan, korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kapitalizatsiya, fond birjasi, korporativ boshqaruv, korporativ tuzilma, aksiyadorlik jamiyati, investitsion jozibadorlik, investitsiya muhiti, moliyaviy munosabatlar, investorlar, aksiyadorlar, korporatsiya.

Abstract: This article describes the role of corporate structures in the development of financial relations in the world. Analysis of data on changes in global macroeconomic indicators and the number of corporate structures and the share of their market capitalization in the world's GDP was carried out. On the basis of the results of the research, proposals and recommendations have been developed on the effective establishment of corporate management of financial relations in corporate structures.

Keywords: capitalization, stock exchange, corporate governance, corporate structure, joint stock company, investment attractiveness, investment environment, financial relations, investors, shareholders, corporation.

Аннотация: В данной статье описывается роль корпоративных структур в развитии финансовых отношений в мире. Проведен анализ данных об изменении глобальных макроэкономических показателей, а также количества корпоративных структур и доли их рыночной капитализации в мировом ВВП. На основе результатов исследования разработаны предложения и рекомендации по налаживанию эффективного корпоративного управления финансовыми отношениями в корпоративных структурах.

Ключевые слова: капитализация, фондовая биржа, корпоративное управление, корпоративная структура, акционерное общество, инвестиционная привлекательность, инвестиционная среда, финансовые отношения, инвесторы, акционеры, корпорация.

KIRISH

Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasida yirik aksiyadorlik jamiyatlari, korporatsiyalar va boshqa korporativ tuzilmalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda korporativ boshqaruv munosabatlariga alohida e'tibor qaratadi. Bu borada moliyaviy munosabatlarga kirishuvchi har bir tuzilma o'z faoliyatida muayyan boshqaruv mexanizmlariga ustuvorlik bergan holda, korporativ boshqaruv orqali moliyaviy samaradorlikka erishishga intiladi.

Shuningdek, "aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish, xorijiy strategik investorlarni jalb qilish orqali milliy iqtisodiyot o'sishining yuqori sur'atlarini ta'minlashning ustuvorlik kasb etishi va dolzarbligi korporativ boshqaruv sifati hamda samaradorligi masalalariga e'tiborning kuchayishiga olib keldi" [5].

Korporativ tuzilmalardagi moliyaviy munosabatlarni tahlil etishda, ayniqsa ularning investitsiya faoliyatiga e'tibor qaratiladi. Bu borada korporativ tuzilmalarning investitsiya faoliyati negizini tashkil etuvchi qimmatli qog'ozlar bozorida ularning o'rni va ahamiyati alohida ko'rib chiqiladi.

Jahonda korporativ tuzilmalarning investitsiya faoliyati va ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini tahlil qilishda quyidagi omillarni hisobga olish muhim:

- korporativ tuzilmalar, jumladan aksiyadorlik jamiyatlarining umumiy soni va ularning o'zgarish tendensiyalari;
- qimmatli qog'ozlar bozorida korporativ tuzilmalarning bozor kapitalizatsiyasi hajmi;
- qimmatli qog'ozlar bozorida ushbu kapitalizatsiyaning jahon va mamlakat YAIMidagi ulushining o'zgarishi;
- jahon va mamlakat miqyosida YAIM hajmining dinamikasi;

fond birjalari faoliyatiga doir jahon va mamlakat ko'rsatkichlari;
korporativ tuzilmalarning qimmatli qog'ozlarini ommaviy joylashtirish (IPO)ga oid statistik ko'rsatkichlar va boshqa tegishli parametrlar.

Quyida ushbu ko'rsatkichlarning har biriga alohida to'xtalamiz.

Dastlab, jahon miqyosida so'nggi 5 yillikda YAIMning o'zgarish tendensiyalarini tahlil qilamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Korporativ boshqaruv” atamasi birinchi marta R. Ills [1] tomonidan “korporativ tuzumning strukturasi va faoliyati” mohiyatini ochib berish uchun qo'llanilgan. Aslida, “korporativ boshqaruv” konsepsiyasining o'zi qadimdan ma'lum bo'lib, bu tushuncha XX asr boshlarida chop etilgan adabiyotlarda ham uchraydi.

Xususan, korporativ munosabatlar tizimi — korporativ va xususiy mulkni boshqarish jarayoni sifatida — birinchi marta 1932-yilda amerikalik huquqshunos A. Berli va iqtisodchi G. Minzning [2] klassik ilmiy ishlarida o'rganilgan. Mazkur ishlarida “korporativ boshqaruv” atamasi bevosita tilga olinmagan bo'lsa-da, mualliflar korporativ boshqaruvni ishonib topshiruvchilar (autsayderlar, investorlar) va vakillar (insayderlar, boshqaruvchilar) o'rtasidagi agentlik munosabatlari kontekstida tahlil qilganlar.

Hanh Song Thi Pham va Duy Thanh Nguyen tomonidan olib borilgan “The effects of corporate governance mechanisms on the financial leverage-profitability relation: Evidence from Vietnam” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarda quyidagicha ta'rif beriladi: “Korporativ boshqaruv — jamoaviy tuzilishga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyatlarda amal qiluvchi va kapital qiymatini oshirishni ta'minlaydigan yaxlit mexanizm hisoblanadi. Bunda yirik aksiyadorlar va minoritar aksiyadorlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni to'g'ri tashkil etishga asosiy e'tibor qaratilishi lozim” [3].

Z. A. Ashurov tomonidan olib borilgan “Korporativ boshqaruv konsepsiyasi va mohiyati” nomli ilmiy tadqiqotda quyidagilar bayon etilgan: “Korporativ boshqaruv — kapital ta'minotchilarini (investorlar, aksiyadorlar) korporatsiyaga qo'ygan pul mablag'larining qaytishini ishonchli tarzda kafolatlash va ta'minlash, ularning manfaatlarini inobatga olgan holda korporatsiya moliyaviy resurslarini oqilona ishlatish va adolatli taqsimlanishini nazorat qilish borasida kelishuv vositasi hisoblanadi” [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda korporativ tuzilmalar faoliyatining jahon moliyaviy munosabatlariga ta'sirini o'rganishda asosiy e'tibor statistik ma'lumotlar va xalqaro moliyaviy hisobotlar tahliliga qaratildi. Ma'lumotlar Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va fond birjalari bazalaridan olindi. Tahlil usuli sifatida taqqoslama tahlil va dinamik o'sish ko'rsatkichlari ishlatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyida keltirilgan jahon miqyosidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishi tahliliga ko'ra, 2019-yilda jahon yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi 87,7 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, pandemiyadan keyingi davr, ya'ni, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich salkam 20 foizga o'sib, 105,0 trillion AQSH dollariga yetdi (1-jadval).

1-jadval. Jahonda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishi tahlili [11]

№	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
1.	YAIM hajmi, trln AQSH doll.	87,78	85,27	97,15	100,88	105,0
2.	YAIMning o'zgarishi, foiz	2,6	-3,1	6,2	3,1	4,08
3.	Aholi jon boshiga YAIM hajmi, AQSH doll.	11 338,2	10 904,1	12 316,1	12 687,7	13,268
4.	Aholi jon boshiga YAIM hajmining o'zgarishi, foizda	1,5	-4	5,3	2,3	4,5

Aytish kerakki, 2019-yilda boshlangan pandemiyaning ta'siri jahon yalpi ichki mahsulotining (YAIM) o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2020-yilda YAIM o'sish sur'ati 2019-yilga nisbatan -3,1 foizga pasayganini ko'rish mumkin. Keyingi yillarda ham dunyoda yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy vaziyat hamda geosiyosiy keskinliklar sababli YAIM hajmi prognoz qilinganidek barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etmadi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM hajmida ham yuqoridagi holat tasdiq topadi. Ya'ni, 2019-yilda ushbu ko'rsatkich dunyo bo'yicha 11 338,2 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda pandemiya sababli ushbu ko'rsatkich -4,0 foizga kamayib, 10 904,1 AQSH dollariga tushib ketgan. Keyingi yillarda esa pandemiyaga qarshi ko'rilgan samarali choralar va boshqaruv uslublari natijasida aholi jon boshiga YAIM hajmi



bosqichma-bosqich yaxshilana boshladi. Jumladan, 2021-yilda bu ko'rsatkich 12 316,1 AQSH dollarini, 2022-yilda 12 687,7 AQSH dollarini, 2023-yilda esa 13 268 AQSH dollarini tashkil etdi.

Mamlakatlar kesimida 2023-yilda YAIM hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan TOP-10 davlatlar quyidagilardir (2-jadval):

2-jadval. YAIM hajmi borasida eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan TOP-10 davlatlar [12]


№	Davlat nomi	2023-yilda YAIM hajmi, trln AQSH dollari	Jahon YAIMdagi ulushi, foizda
1.	AQSH	26,855	25,54
2.	Xitoy	19,374	18,43
3.	Yaponiya	4,410	4,19
4.	Germaniya	4,309	4,10
5.	Hindiston	3,737	3,55
6.	Buyuk Britaniya	3,159	3,00
7.	Fransiya	2,923	2,78
8.	Italiya	2,170	2,06
9.	Kanada	2,090	1,99
10.	Braziliya	2,081	1,98

Mamlakatlar kesimida YAIM hajmi bo'yicha TOP-10 davlat orasida dunyo YAIM umumiy yig'indisining 25 foizdan ortiq ulushi rivojlangan davlat hisoblangan AQSHga to'g'ri keladi. 2023-yilda ushbu davlatning YAIM hajmi 26 trillion 855 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

Undan keyingi o'rinda yuqori demografik salohiyatga ega bo'lgan Xitoy joylashgan bo'lib, 2024-yilda jami aholisi 1 milliard 425 milliondan oshgan ushbu davlatda [13] 2023-yilda YAIM hajmi 19 trillion 374 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Bu esa dunyo YAIMining 18,43 foiziga tengdir.

Yana bir rivojlangan davlat — Yaponiyaning 2023-yildagi YAIM hajmi 4 trillion 400 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'lib, jahon yalpi mahsulotining 4,19 foizini tashkil etdi.

Yevropa Ittifoqida YAIM hajmida yetakchi o'rin egallagan Germaniyaning 2023-yildagi YAIM hajmi 4 trillion 300 milliard AQSH dollaridan ortiqni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich Germaniyaga Yevropa Ittifoqi YAIMining 24 foizi va jahon YAIMining 4,1 foizi ulushini beradi (1-rasm).



1-rasm. Yevropa Ittifoqi davlatlarining 2023-yilda YAIM hajmi ulushi, foizda [14]

Yevropa Ittifoqi davlatlaridan Fransiyada 2023-yilda YAIM hajmi 2,9 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich Yevropa Ittifoqi YAIM umumiy hajmining 17 foiziga, jahon YAIMining esa 2,7 foiziga teng bo'lgan.

Shuningdek, 2023-yilda Yevropa Ittifoqi YAIM hajmida 2,06 foiz ulushga ega bo'lgan Italiya mamlakatining mazkur yildagi YAIM hajmi 2 trillion 170 milliard AQSH dollarini tashkil etgan.

Bundan tashqari, YAIM hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan TOP-10 davlatlar qatoriga Afrika qit'asining yirik davlatlaridan biri emas, balki Osiyo mintaqasining yetakchi iqtisodiyotlaridan biri hisoblangan Hindiston ham kiradi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, Hindistonda YAIM hajmi 3 trillion 737 milliard AQSH dollarini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich mamlakatga dunyo YAIMining 3,55 foiz ulushini beradi.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, "mazkur davlatlardagi korporativ tuzilmalarda samarali boshqaruv tizimlarining yo'lga qo'yilganligi sababli, ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi 2024–2032-yillardagi o'sish sur'ati 12 foizdan ortishi prognoz qilinmoqda" [15].

Mazkur paragraf boshida keltirilgan tahlil ketma-ketligiga muvofiq, endi qimmatli qog'ozlar bozorida fond birjalari listingiga kiritilgan korporativ tuzilmalar soni hamda ularning bozor kapitalizatsiyasining jahon YAIMidagi ulushi o'zgarishiga doir ma'lumotlarni tahlil qilamiz (3-jadval).

3-jadval. Jahonda korporativ tuzilmalar soni hamda ular bozor kapitalizatsiyasining jahonda YAIMdagi ulushining o'zgarishiga oid ma'lumotlar tahlili [11]

№	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
1.	Fond birjalari listingiga kiritilgan korporativ tuzilmalar soni, birlik	49921	49839	51337	47926	46813
2.	Korporativ tuzilmalar bozor kapitalizatsiyasi, trln AQSH doll.	79,41	95,2	111,16	93,69	112,0
3.	Bozor kapitalizatsiyasining YAIM hajmi nisbatan ulushi, %	107,9	133,4	131,8	106,5	106,6

Yuqoridagi jadvalda jahon bo'yicha korporativ tuzilmalar soni hamda ularning bozor kapitalizatsiyasining jahon YAIMdagi ulushidagi o'zgarishlarga doir ma'lumotlar tahlili keltirilgan. Unga ko'ra, fond birjalari listingiga kiritilgan korporativ tuzilmalar soni 2019-yilda 49 921 tani, 2020-yilda 49 839 tani, 2021-yilda 51 337 tani, 2022-yilda 47 926 tani, 2023-yilda esa 46 813 tani tashkil etgan. Aytish joizki, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 6,2 foizga kamaygan.

Shuningdek, fond birjalari listingiga kiritilgan korporativ tuzilmalarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi kapitalizatsiya hajmi 2019-yilda 79,4 trillion AQSH dollarini tashkil etib, jahon YAIMiga nisbatan 107,9 foizga teng bo'lgan. 2020-yilda ushbu ko'rsatkich salkam 20 foizga oshib, 95,2 trillion AQSH dollarini tashkil etgan.

2021-yilda bozor kapitalizatsiyasi hajmi 111,16 trillion AQSH dollariga yetgan bo'lib, bu 2019-yilga nisbatan 40 foizga, 2020-yilga nisbatan esa 16,7 foizga yuqori. 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 93,69 trillion AQSH dollarini tashkil etgan. Bu 2019-yilga nisbatan deyarli 18 foizga ko'p bo'lsa-da, 2020-yilga nisbatan 1,5 foizga, 2021-yilga nisbatan esa 15,7 foizga kamaygan. Bunday kamayish holatini aynan 2022-yilda listingga kiritilgan korporativ tuzilmalar sonining kamaygani bilan izohlash mumkin.

Ushbu yilda bozor kapitalizatsiyasining jahon YAIMga nisbatan ulushi 106,5 foizni tashkil etgan. 2023-yilda esa fond birjalari listingiga kiritilgan korporativ tuzilmalar bozor kapitalizatsiyasi hajmi 112,0 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, bu jahon YAIMiga nisbatan 106,6 foizga teng bo'lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahliliy ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, jahon moliyaviy munosabatlarining rivojlanishida korporativ tuzilmalarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holatni jahon hamda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar misolida bozor kapitalizatsiyasining YAIMdagi yuqori ulushi orqali yaqqol ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, listingga kiritilgan korporativ tuzilmalar sonining barqaror emasligi bozor kapitalizatsiyasi hajmining tebranishiga olib kelganini ta'kidlash mumkin. Bozor kapitalizatsiyasi va korporativ tuzilmalar sonidagi o'zgarishlar global miqyosda yuz bergan iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy hamda siyosiy vaziyatlar fonida ro'y berib kelmoqda.

Jumladan, 2019-yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi, Yaqin Sharq va Yevroosiyo mintaqalaridagi geosiyosiy ziddiyatlarning keskinlashuvi, yoqilg'i-energetika xomashyolari narxlaridagi jiddiy tebranishlar mazkur dinamikani izohlovchi omillar sifatida ko'rsatib o'tilishi mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eells R.S.F. The Meaning of Modern Business: An Introduction to the Philosophy of Large Corporate Enterprise. – New York: Columbia University Press, 1960. – 427 p
2. Berle A., Means G. The modern Corporation and Private Property – New York: Macmillan, 1932. – 478 p.
3. PHAM, Hanh and NGUYEN, Duy Thanh (2019). The effects of corporate governance mechanisms on the financial leverage–profitability relation. Management Research Review, 43 (4), 387-409.
4. З.А.Ашуров. Корпоратив бошқарув концепцияси ва моҳияти: илмий назарий ёндашувлар ва уларни ривожлантириш. “Иқтисодийот ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2015 йил. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/33_Z_Ashurov.pdf
5. Суюнов Д., Хошимов Э. Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув самарадорлигини баҳолашнинг методологик жиҳатлари. “Иқтисодийот ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018 йил
6. А.Баронов. Теоретические основы корпоративного управления. Экономика и права. №6/2021
7. Управление и корпоративный контроль в акционерном обществе: практ. пособие/ Под ред. Е.П. Губина. — М., 1999. С. 17.
8. Корпоративное право: учебник для вузов/ Под ред. И.С. Шиткиной. — М., 2011.
9. Правовой статус исполнительных органов хозяйственных обществ: дисс. ... канд. юрид. наук: 6 .00.03/ Серебрякова А.А. — Ульяновск, 2005. С. 42.
10. Чеботарь Ю.М. ЧЗ4 Корпоративное управление: монография/Чеботарь Ю.М. – М.: Автономная некоммерческая организация «Академия менеджмента и бизнес-администрирования», 2017. – 136 с
11. Veasey E.N. The Emergence of Corporate Governance as a New Legal Discipline // The Business Lawyer. – August 1993. – Vol.48, Issue 4. - P.1267-1271.
12. https://www.researchgate.net/publication/349160150_AKCIADORLIK_ZAMIATLARIDA_KORPORATIV_BOSKARUV_SAMARADORLIGINI_BAOLASNING_METODOLOGIK_ZIATLARI
13. Жаҳон банки маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган: [GDP per capita growth \(annual %\) | Data \(worldbank.org\)](https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.PCAP.CD)
14. [Visualizing the \\$105 Trillion World Economy in One Chart \(visualcapitalist.com\)](https://visualcapitalist.com/visualizing-the-105-trillion-world-economy-in-one-chart/)
15. [China Population \(2024\) - Worldometer \(worldometers.info\)](https://worldometers.info/china/population/)
16. [The \\$16 Trillion European Union Economy \(visualcapitalist.com\)](https://visualcapitalist.com/the-16-trillion-european-union-economy/)
17. [India Security Market Size, Share, Demand & Report, 2032 \(imarcgroup.com\)](https://www.imarcgroup.com/india-security-market-size-share-demand-report-2032/)

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100